erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Mazkur loyihada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining o'zaro tutashuvi o'qitish va o'qishga yo'naltirilgan aniq harakatlar, amallar va rejalar shaklida joriy etiladi. Bunda ta'lim beruvchiga davlat ta'lim standartlaridan chetga chiqmagan holda turli samarali metodlardan foydalanib, ta'lim oluvchiga sifatli ta'lim berishdek muhim vazifa yuklatiladi. Bunda ta'lim beruvchi og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanib, ta'lim shaklini yanada samarali shakllantiradi.

Amaliy mashg'ulotlarni olib borishda evristik ijodiy topshiriqlar metodidan unumli foydalaniladi. Bunda yangi qonuniyatlar va qoidalar ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim beruvchi rahbarligida umumlashtiriladi. Bu metod evristik suhbat borasida muammoli masala va topshiriqlarni yechish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda texnik obyektlarning umumiy tuzilishi, ishlash prinsipi, solishtirish, taqqoslash, analiz va sintez qilish bilan bog'liq tadqiqotli topshiriqlar metodi qo'llaniladi. Ta'lim oluvchi oldiga ijodiy darajadagi nazariy, abstrakt va amaliy xarakterga ega muammoli topshiriqlar qo'yiladi, ya'ni texnologiya fanidan ta'lim beruvchi mustaqil amaliy tayyorgarlik ko'rib, mashg'ulotlarni tashkil qiladi. Shubhasiz, ta'lim beruvchi bunday pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlarga duch keladi va ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda, ta'lim beruvchi rahbarligida masala yechimini topadi.

Ta'lim oluvchi mustaqil mantiqiy fikr yuritib, yangi tushuncha va yangicha yondashish usulining mohiyatini ochadi. Ta'lim oluvchi fikrlash qobiliyatini faollashtirishga qaratilgan quyidagi metodlardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini qo'lga kiritadi.

"FSMU" metod texnologiyasi bo'yicha munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv dasturi asosida biror mavzu o'rganib bo'lingach qo'llaniladi. Bu texnologiya ta'lim oluvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga va baholashga o'rgatadi.

"FSMU" metod texnologiyasi bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich. Ta'lim beruvchi muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni belgilab oladi va har bir ta'lim oluvchi avval yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi hamda nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlalishi haqida ma'lumot beradi. Masalan, tikuvchilik buyumlarini konstruktiv modellashtirish muammosi yaratilsa, ta'lim beruvchi har bir ta'lim oluvchiga oddiy bichimli ko'ylakning chizmasini tarqatib, yakka tartibda modellashtirishlari uchun muammoni yaratadi. Har bir ta'lim oluvchi dizaynerlik qobiliyati va farazlari orqali ko'ylakni modellashtirishga kirishadi. Yakka tartibda ishlangan modellashtirish ishlanmalarni muhokama qilishda guruh va jamoa bilan ishlash tavsiya qilinadi.

2-bosqich. Har bir ta'lim oluvchiga FSMU metod texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating.

(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Masalan, 4 bosqichli tarqatmalar orqali yakka tartibda ishlagan modellashtirishning konstruksiyasini qurishdagi fikrlarini bayon qiladi. Loyihani modellashtirishda yangilik kiritilgan bo'lsa, o'zgartirilgan model qismi o'zgartirish sababini ko'rsatadi.

3-bosqich. Har bir ta'lim oluvchi o'z tarqatmalari bo'yicha modellashtirib bo'lgach, ta'lim beruvchi ularni kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi. Masalan, har bir o'quvchining modellashtirilgan modeli katta formatda konstruksiyaga asoslangan modellashtirish chiziqlari ranglar asosida kiritiladi. "Nima uchun ranglar?" deyilganda, har bir ta'lim oluvchining kiritgan yangiligi o'zi tanlagan rang bo'yicha farqlanadi.

4-bosqich. Guruhlar FSMUning 4 bosqichining har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar. Masalan, katta formatda umumlashtirib tayyorlangan modellashtirilgan chizma konstruksiyasini himoyaga tayyorlaydilar.

5-bosqich. Kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar. Masalan, har bir kichik guruh umumlashtirilgan konstruksiyani himoya qiladi.

6-bosqich. Ta'lim beruvchi yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi. Masalan, guruhlar bo'yicha fikrlar tinglanganidan so'ng modellashtirilgan konstruksiyaning standartga mos kelishi va yangi loyiha yaratilgani haqida o'z munosabatini bildiradi.

Bu metodda har bir ta'lim oluvchi ishlaydi. Loyiha konstruksiyasini yaratishga harakat qiladi. Natijada mukammal modellashtirilgan konstruksiya loyihasini olishga erishiladi.

“Case-study” metod texnologiyasi. Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so'zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case – true life”, ya'ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko'ra keys real hayotning “bir parchasidir”. Shunga ko'ra bu metod “amaliy jarayonlarni o'qitish metodi” deb ham ataladi [2]. [O.U. Avlayev va boshqalar. Ta'lim metodlari. – Toshkent, 2017. – 17-bet].

“Design technology” (loyiha texnologiyasi) tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va loyihalash ishlarini o'z ichiga olgan masalalarni o'rganish hamda ularni imkon qadar yechishga harakat qilish orqali loyihalashga ijodiy yondashish mumkin. Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalashda elementlarga (yoqalar, yenglar, bo'rtiqlar, old va orqa detallar va boshqalar) fason tuzilishiga biroz o'zgartirish kiritish orqali buyumning dizayn uslublarini modellashtirish, gigiyenik va ekspluatatsion talablarini oshirish, tikilishi, bezatilishi va ishlov berilishini soddalashtirish, modellashtirishdan foydalanishda qulaylik yaratish hamda ko'rinishining chiroyli bo'lishiga erishish mumkin.

Bu o'ziga xos sermashaqqat ish bo'lib, idrokli va sabr-toqatli bo'lishni talab qiladi. Loyihalashni o'rganish maqsadida bir qator ijodiy masalalarni yechib mashq qilinadi. Buning uchun loyiha turli buyumlar detallarini tayyorlash bilan shug'ullanish, ba'zi bir xatolikka yo'l qo'yilib ishlangan buyumlarni bejirim, o'ziga jalb etadigan darajada yangilik kiritib, xatolari bartaraf etilib qayta ishlash lozim bo'ladi. Bunga erishish uchun ularning siluetiga o'zgartirishlar kiritiladi. Shundan keyin buyum modellashtirish bo'lsa, u qayta badiiy loyihalangan hisoblanadi.

1. Buyumlarning chizmasi va konstruktiv loyihalashda detallarini qisman qayta loyihalash, amaldagi detalning ko'rinishini oddiydan murakkab konstruktiv loyihalash asosida o'zgartirib, rasm chizmasi fasoniga o'zgartirish kiritish, kiyimni kiyganda har tomonlama qulay qilib qayta loyihalash dizayn deyiladi. Dizayn inglizchada “design” – chizma, rasm, loyiha degani.

Detalga kiritilgan o'zgartirish chizma orqali amalga oshirilsa, konstruktiv chizmani qayta ijodiy model-lashtirilgan loyihalash deyiladi.

2. Ta'lim oluvchi buyumlar chizmasini konstruktiv modellashtirish, tikuvchilik buyumlarini avtomatlashgan loyihalash tizimlarida buyumlar detal shaklini fikran va g'oyaviy o'zgartirib, uni qayta ijodiy loyihalash holatini tasavvur qilsa, dizaynerlik qobiliyatini o'z faoliyatida rivojlantiradi. Masalan, oddiy bichimli ko'ylak konstruktiv chizmasiga asosiy chizmalar orqali detallarga o'zgartirish kiritish, vitochkalar orqali fasoni va siluetini modellashtirib, yaratilayotgan chizma konstruksiyasini avtomatlashgan loyihalash tizimlarida mustaqil yaratish dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishda yangi loyihalash tizimlari hisoblanadi.

“STEM” metod texnologiyasi. STEM – inglizcha “Science, Technology, Engineering, Maths” so'zlarining qisqartmasidir. O'zbekchasiga qisqacha aytganda, STEM fanlari ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlarini o'z ichiga oladi va bu fanlarni yaxlit tarzda o'qitishni anglatadi. STEM bo'lajak texnologiya fani ta'lim beruvchilarini tayyorlashda dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan biri hisoblanadi.

STEM metod texnologiyasi quyi ta'lim tizimidan boshlanishi kerak. Bu ta'lim asosida ta'lim oluvchi dunyoda yuz berayotgan muammolarga yechim topishni o'rganadi. Ilm-fanni (Science) yaxshi o'zlashtirish ta'lim oluvchiga o'zini o'rab turgan atrof-muhitni yaxshi anglashga yordam beradi. Texnologiya fanida dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda kelajakda raqamli texnologiyalarga moslashuvchan qiladi. Muhandislik (Engineering) bilan ta'lim oluvchi muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'rgangan bilimlarini yangi loyihalar yaratish uchun qo'llay oladi. Matematika esa ma'lumotlarni tahlil qilish, xatolarni tuzatish, to'g'ri yechimlar topish uchun kerak bo'ladi. STEM mana shu 4 ta yo'nalishni bir tizimga soladi va jamiyatga innovatsiyalar yarata oladigan, muammolarga barqaror yechimlar topa oladigan kadrlarni tayyorlab beradi.

Bu yo'nalishdagi o'qitishda fanni yaxshi o'rganish, muammoni hal qilish va mantiqiy fikrlashni o'zlashtirishga urg'u beriladi. STEM ta'lim oluvchilarga ta'limda, ishda va turli hobbilarda muvaffaqiyat qozonish imkonini taqdim etadi.

Masalan, STEMni turli o'lchamdagi kiyimlarni yaratuvchi guruh deb olsak, uni yaxshi o'zlashtirgan ta'lim oluvchi doimiy ravishda kiyimlarni fasllarga qarab kerakli o'lchamlarini o'zi tanlab olib, istalgan konstruktiv loyihalash asosida modellashtira oladi.



STEM o'z ichiga olgan fanlarni o'qish davomida ta'lim oluvchida quyidagi qobiliyatlar shakllanadi:

- muammoni hal qila olish;
- kreativlik;
- tanqidiy fikrlash;
- jamoaviy ishlay olish;
- mustaqil fikrlash;
- tashabbuskorlik;
- kommunikatsiya;
- raqamli savodxonlik.

STEM ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikani bir-biriga bog'liq holda yaxshi o'zlashtirgan, o'rganganlarini amaliyotda qo'llay oladigan, kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, ham jamoaviy yaxshi ishlashni, ham mustaqil tashabbuslarni hamda qobiliyatlarini amalda qo'llaydigan kadrlar tayyorlaydi.

Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM dasturi ta'lim oluvchilarning kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, ta'lim oluvchilar ayollar ko'ylagi konstruksiyasini modellashtiradilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazib, amalda qo'llaydilar. Birinchi amaliy sinovdan so'ng kutilgan natijaga erishilmasa, uning xatolik sabablari haqida o'ylaydilar va yechimini topadilar. Har bir amaliy sinovdan so'ng ular matematik xatolarini bartaraf etib boradilar. Barcha izlanishlardan so'ng o'z kuchiga ishonish hissi ortadi. Ta'lim oluvchilar kiyimlarni konstruktiv loyihalash va modellashtirishdan tikib tayyorlashgacha bo'lgan amallarda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so'ng kiyim modelini takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib, maqsadiga erishadilar. Bu ta'lim oluvchilar uchun ruhanish, g'alaba va quvonch demakdir. Har bir g'alabadan so'ng ular o'zlashtirgan bilimlariga yanada ishonadilar.

Faol kommunikatsiya va guruhlarda ishlash. STEAM metodi faol kommunikatsiya va guruhlarda ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganadilar. Ta'lim oluvchilar doimo ta'lim beruvchi va guruhdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar. Ta'lim oluvchilar jarayonda faol qatnashganlarida, mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

KIVI-metod texnologiyasi

K – konstruksiya (lotincha: constructs – tuzish, qurilish);

I – ideya (ruschadan tarjimada "g'oya"), ya'ni "g'oya" aslida arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida maqsadga erishish, intilish, niyatni amalga oshirish ma'nolarini anglatadi;

V – vazmojnost (rus tilidan olingan "imkoniyat") narsa va hodisalar rivojining asosiy bosqichlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha, ya'ni biror narsani amalga oshirish yoki unga erishish imkonini beruvchi shart;

I – individualniy (lotincha "individuum" – "bo'linmaydigan, bo'linmas") alohida, mustaqil holda mavjudlik ma'nolarini beradi.

KIVI metodining maqsadi – ta'lim oluvchilarning erkin fikrlashi, o'z g'oyalari va imkoniyatlarini mustaqil ravishda yuzaga chiqarishidir.

KIVI metodining vazifasi loyihalash va konstruksiyalashning yagona avtomatlashgan tizimlarida mukammal ishlashga erishishni o'rgatishdan iborat.

Demak, KIVI yakka yoki guruhlarda g'oyaviy konstruktiv modellashtirish imkonini beradi.

Bu metodda tikuvchilik buyumlarini loyihalash va konstruksiyalashning avtomatlashgan tizimlari bo'yicha yakka va guruh bilan ishlash orqali samaradorlikka erishiladi.

KIVI metodini amaliyotga tatbiq qilishda faoliyat va uning samaradorligini ko'rib chiqamiz.

Amaliy mashg'ulot darslarida KIVI metodini qo'llash.

Ta'lim beruvchi faoliyati: oddiy ko'ylak chizmasini elektron doska orqali chizma konstruksiyasini SNSHP metodida taqdim etadi. Taqdim etilgan ko'ylak konstruksiyasini modellashtirish muammosi o'rta tashlanadi. Har bir ta'lim oluvchiga elektron doska orqali ko'rsatilgan ko'ylak konstruksiyasi tarqatma materiali variantlarda tarqatiladi. Konstruksiyani mobil ilova orqali variant asosida modellashtirish imkoniyati beriladi.

Ta'lim oluvchi faoliyati: berilgan muammoli vaziyatda ta'lim oluvchi qo'lidagi tarqatmaga o'zgartirishlar kiritadi, ilova orqali o'z g'oyalari asosida barcha imkoniyatlardan foydalanib, dizaynerlik qobiliyatini ishga solgan holda ko'ylakni modellashtiradi.

Modellashtirilgan variantlar birma-bir ta'lim beruvchiga yuboriladi. Elektron doska orqali har bir ta'lim oluvchining modellashtirilgan variantlari ko'rib chiqiladi va muhokama qilinadi.

Natija: elektron ilova orqali modellashtirishni amalga oshirishda har bir vaqtdan samarali foydalanishga hamda qisqa vaqt ichida bir nechta ajoyib ko'ylak fasonlari yaratilishiga erishiladi.

Har bir ta'lim oluvchi o'zining xato va kamchiliklarini ko'rib oladi. Ta'lim oluvchilar bir-birlarining xatolarini to'ldiradilar, o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildiradilar.

Baholash tizimi ilovada yuborilgan kiyimlar modeli asosida har bir ta'lim oluvchining ishi saqlanib, baholanadi.

Samaradorligi: har bir ta'lim oluvchi mustaqil, ilg'or, intiluvchan bo'ladi, mustaqil fikrlaydi, o'z g'oyasiga tayanadi, mustaqil ishlash samaradorligiga erishadi.

1-jadval: KIVI metodi orqali ta'limda o'qitish shakllarining qiyosiy tavsifi

Ta'lim shakllari	Harakterli xususiyatlari	
	Afzalligi	Kamchiligi
Jamoa (frontal)	O'quv mashg'ulotining aniqligi, tartiblili ta'minlanadi; o'quv guruhi jamoasi bir butun sifatida ishlaydi; tejamlilik – o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilar bilan ishlaydi. Har bir ta'lim oluvchining ishlagan modellashtirilgan g'oyalari saqlanadi. Bir vaqtning o'zida tekshirilib, jamoada muhokama qilinadi.	O'qituvchi ta'lim berish obyekti; ta'lim berish yalpi xarakterga ega, ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibdagi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish imkoniyati bo'lmaydi.
Guruhli	O'qituvchi ta'lim subyekti va obyekti hisoblanadi; guruhda ish har bir ta'lim oluvchining imkoniyati, qobiliyati va ishlash tezligini o'zaro yordam hamda o'zaro nazorat qilishni hisobga olgan holda vazifalarni taqsimlash asosida tashkil etiladi; hamkorlikda ishlashda guruhdagi har bir ta'lim oluvchining tajribasi boshqalarning tajribasini to'ldiradi, o'quv materialini o'zlashtirishga yordam beradi; guruh a'zolari va guruhlar o'rtasida ularning faoliyati, mustaqilligi, muloqoti va hamkorligi o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lish mas'uliyatini sezishni ta'minlaydi; har bir ta'lim oluvchi o'zi uchun va boshqalar uchun ishlaydi; natijalar yakka tartibda ish paytidagiga nisbatan kam vaqt sarflangan holda olinadi; guruhda hamkorlikda ishlash tufayli olinadigan natijalar ta'lim oluvchilar vazifasini alohida bajarganga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.	Ta'lim guruhda ishni bajarishga va uning natijalarini olishga ma'lum bir vaqt sarflashni talab etadi; ko'p mehnatni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi tayyorgarlik uchun ko'p mehnat qilishi kerak; guruhlar soniga qarab kiyim modeli ham shuncha bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning baholanishida ishlagan ham, ishlamagan ham birdek baholanadi.
Yakka tartibda	Ta'lim oluvchilarning yuqori darajada mustaqil bo'lishi ta'minlanadi; ta'lim oluvchining rivojlanishi, tayyorgarligi, qobiliyati va bilish imkoniyatlari darajasini maksimal hisobga olgan holda ta'limni yakka tartibda o'tkazish ta'minlanadi; ta'lim oluvchining kuchi va tayyorgarlik darajasi bo'yicha har birining ta'lim olish tezligi boshqariladi; har bir ta'lim oluvchiga mutanosib yakka tartibda yordam berish ta'minlanadi.	Ko'p mehnatni talab qiladi, ya'ni o'qituvchi yakka tartibda vazifalarni ishlab chiqishi, ularni amalga oshirishga yordam berishi va nazorat qilishi kerak.



1-rasm: KIVI metodini o'qitish tartibi



KIVI metodining dars jarayonidagi vazifalari

Maksimal harakat erkinligi. Ta'lim oluvchi o'zlari uchun maqsadlar sari qadam qo'yadi, maqsadlarga erishish yo'llarini va muammo bo'yicha ma'lumotlarni izlaydi. Ta'lim beruvchi maslahatchi vazifasini bajaradi. Ta'lim beruvchi savollarga javob beradi, lekin ta'lim oluvchilarga qidirish, ma'lumot tanlash, vositalarni tanlash bilan shug'ullanmaydi. Shuningdek, ta'lim beruvchi muammoli vazifalarni bitta vazifa ichida jamlaydi. Ta'lim oluvchilar kerak bo'lganda vazifalarni bir-biriga topshirish bilan baravar shug'ullanadilar.

KIVI – bu amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim. Bu muammoning yechimini topishga va g'oyalarni asosida model-lashtirishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot va ijodiy loyihalarni o'qitishni ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etishlari mumkin.

KIVI metodining vazifalari

Amaliy mashg'ulot darslarida o'qitish usullarini qo'llashning asosiy vazifasi barcha ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish va keyingi mavzuga mukammallik darajasida o'tishdir. Amaliy mashg'ulotlarning natijasiga erishish uchun bosqichma-bosqich mashg'ulotlar o'tib boriladi. Natijaga erishish-ning bosqichlari:

- mavzuni idrok etish darajasini oshiradigan vizual materiallardan foydalangan holda o'zlashtirishga erishish;
- ko'nikmalarni mustahkamlash, ta'lim oluvchilarning bilim faolligini tekshirish;
- nazariy, mantiqiy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- vazifalar ko'p qirrali, mukammal tuzilgan bo'ladi va har bir ta'lim beruvchi darsga tayyorgarlik ko'rayot-ganda ularga erishish uchun reja tuzadi.

Metodning o'qitish strukturasi

Metodga qo'yilgan muammolar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish jarayonida yuzaga kelgan natijalarga asoslanib, pedagogikada o'qitish metodlarining uchta guruhini qo'llagan holda o'qitish mumkin.

Tashkiliy mavzuni taqdim etish manbasiga ko'ra og'zaki, ya'ni ta'lim beruvchi mavzuni qisqacha bayon etadi, mavzuga oid muammolarni ta'lim oluvchiga yetkazadi, vizual jadval va tarqatma materiallar tarqatib, muammoni yaratish yoki amaliy mavzular bilan guruhlarda ishlash strukturalariga bo'linadi. O'quv faoliyatining tabiati bo'yicha muammoli taqdimot, illyustratsiya tarqatmani qo'shimcha tarzda to'ldirish metodi bilan ajralib turadi. Materialni yetkazib berish mantig'iga ko'ra induktiv va deduktiv metodlar farqlanadi. Induktiv metod yaratilgan muammoning yechimini yig'ish jarayoniga asoslangan. Ta'lim beruvchi muammoli vaziyatni yaratish orqali maqsadga erishuvchi tarqatma materiallarni tarqatib, muammoning yechimini yig'ish uchun jarayonni tashkil etadi. Deduktiv metod – bu bilish jarayonida fikrlarda umumiy g'oyaviy bilimlarning birlashishi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar berilgan muammoli topshiriqni o'z g'oyaviy bilimlariga tayangan holda g'oya va fikrlarni birlashtiradilar. Har bir muammo qa'rida imkoniyatlar yotadi.

Muammoning yechimi

Ta'lim oluvchilar individual bilimlariga tayangan holda yaratilgan yangiliklariga asoslanadi. Topilgan muammoning yechimlari amaliyotga tatbiq etiladi. Tarqatilgan tarqatma materiallariga kiritilgan o'zgartirish va yangiliklar asosida yechim topilishi uchun zarur bo'lgan yordamchi vositalardan foydalanib, yechimga oydinlik kiritadi. Yordamchi vositalar sifatida turli ranglardagi markerlar hamda o'lchash asboblari (santimetr, chizg'ich, qalam va boshqalar) ishlatiladi. Agar buyumlarni loyihalash avtomatlashtirilgan tizimlarda loyihalansa, ta'lim oluvchi muammoning yechimini topish uchun quyidagi bosqichlarni bosib o'tadi:

- muammoning darajasi;
- muammoni amaliyotga tatbiq qilish;
- muammoning tahlili;
- muammoning umumlashgan yechimini topish bosqichlari.

Muammolar darajasiga qarab oddiy va murakkab yechimlarga bo'linadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarining dizaynerlik faoliyatini rivojlantirish zamonaviy peda-gogikaning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayoniga FSMU, Case-study va STEM kabi interfaol metodlarni integratsiya qilish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki mustaqil mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatini ham sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Ayniqsa, muallif tomonidan

taklif etilgan “KIVI” (Konstruksiya, Ideya, Vozmojnost, Individualniy) metodi tikuvchilik buyumlarini loyihalashda raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar va elektron doskalar yordamida qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishish imkonini beradi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dizayn darslarida subyekt–subyekt munosabatlariga asoslangan zamonaviy metodlarni qo'llash bo'lajak kadrlarning professional kompetensiyalarini jahon standartlari darajasida shakllantirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son Farmoni.
3. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. Ta'lim metodlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Navro'z” nashriyoti, 2017. – 210 b.
4. Muhammedov O'.X., Usmonboyeva M.H., Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. – Toshkent, 2016.
5. Xodjayev B.X. Interfaol ta'lim texnologiyalari va strategiyalari. – Toshkent: “TDPU”, 2018.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Moliya-iqtisod”, 2006.
8. G.M. Xaydarova. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
9. Raqamli iqtisodiyot va ta'lim. “STEM-ta'lim” yo'nalishidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (2023–2024-yillar).
10. Bybee, R.W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. National Science Teachers Association – NSTA Press.
11. Yin, R.K. (2018). Case Study Research and Applications: Design and Methods. SAGE Publications.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.